

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 16 martdagi «2018-2019 yillarda Samarqand viloyatida turizmni yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-3609-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, Vazirlar Kengashi qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 16 martdagi «2018-2019 yillarda Samarqand viloyatida turizmni yanada rivojlantirishga doir qo'shimchachora-tadbirlar to'g'risida»giPQ-3609-sonli qarori ijro uchun rahbarlikka olinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:

a) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «2017-2019 yillarda Samarqand shahri va Samarqand viloyatining turizm salohiyatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida» 2017 yil 30 iyundagi 450-son qarori qabul qilinib, uning doirasida amaliy ishlar olib borilayotgani inobatga olinganligi;

b) Quyidagilar bilan;

2018-2019 yillarda Samarqand viloyatida turizmni yanada rivojlantirish, xorijiy va mahalliy turistlar oqimini ko'paytirish, yangi infratuzilma ob'ektlarini barpo etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar dasturi (keyingi o'rinlarda Dastur deb ataladi) 1-ilovaga muvofiq;

2018-2019 yillarda Samarqand viloyatida turizmni yanada rivojlantirish, xorijiy mamlakatlardan jalb qilinadigan turistlar sonini 2017 yilga nisbatan 2018 yilda 1,9 karra hamda 2019 yilda 2,8 karra miqdorda oshirish bo'yicha prognoz parametrlari 2-ilovaga muvofiq;

2018-2019 yillarda Samarqand viloyatiga ichki turizmni rivojlantirish maqsadida respublika hududlaridan jalb qilinadigan mahalliy turistlar soni 2017 yilga nisbatan 2018 yilda 1,7 karra hamda 2019 yilda 2,3 karra miqdorida oshirish bo'yicha prognoz parametrlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

v) 1-ilovadagi dasturga kiritilgan tegishli chora-tadbirlar mahalliy byudjet parametrlarida nazarda tutilgan mablag'lar va ijrochilar mablag'lari doirasida moliyalashtirish belgilanganligi;

g) Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi (Abduxakimov) va Samarqand viloyati hokimligiga (Jo'raev);

Dasturga kiritilgan chora-tadbirlarning davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va boshqa tashkilotlar tomonidan belgilangan muddatlarda amalga oshirilishini nazorat qilish va muvofiqlashtirish;

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi (Kamilov), Halq ta'limi vazirligi (Inoyatov), Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (Madjidov), Din ishlari bo'yicha qo'mita (Yusupov), O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi (Narbaeva), O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi (Rafikov), O'zbekiston yoshlar ittifoqi (Kuranboev), «Mahalla» xayriya jamoat fondi (Javlonov), «Nuroni» jamg'armasi (Jalilov) hamda boshqa vazirliklar, idoralar va tashkilotlar bilan birgalikda ushbu qarorning 2-3-ilovalaridagi prognoz parametrlarda belgilangan ko'rsatkichlarga erishish yuzasidan ta'sirchan chora-tadbirlarni amalga oshirish topshirilganligi;

d) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 30 iyundagi 450-son qarori bilan tasdiqlangan 2017-2019 yillarda Samarqand viloyati va Samarqand shahrining turizm salohiyatini jadal rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar Dasturi amalga oshirilishining nazoratini ta'minlash bo'yicha Ishchi guruhga (Xolmurodov) har chorak yakuni bo'yicha ushbu qarorda hamda Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 30 iyundagi 450-son qarorida belgilangan ustuvor vazifalar va chora-tadbirlarning bajarilishi yuzasidan mas'ul davlat organlari rahbarlarining hisobotini joyiga chiqqan holda eshitish hamda yuklatilgan vazifalar ijrosining buzilishi holatlari va sabablarini aniqlab, ularni bartaraf etish choralarini ko'rish vazifasi yuklanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2018-2019 yillarda Samarqand viloyatiga ichki turizmni rivojlantirish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasidan jalb qilinadigan mahalliy turistlar sonini oshirish bo'yicha prognoz parametrlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosarlari (Jumanov, Aleuov) Halq ta'limi vazirligi (Ayapov), O'rta maxsus kasb-hunar ta'lim boshqarmasi (Seytimuratov), Xotin-qizlar qo'mitasi (Ibragimova), Kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi (Jalmenov), O'zbekiston yoshlar ittifoqi Qoraqalpog'iston Respublikasi kengashi (Daniyarov), «Mahalla» xayriya jamoat fondi (Ramanov), «Nuroni» jamg'armasi (Usnatdinov), O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi (Zarikeev), shahar va tumanlar hokimliklar hamda boshqa vazirliklar, idoralar va tashkilotlar bilan birgalikda ushbu qarorning ilovasidagi prognoz parametrlarda belgilangan ko'rsatkichlarga erishish yuzasidan ta'sirchan chora-tadbirlarni amalga oshirsin.

5. Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi Qoraqalpog'iston Respublikasi hududiy boshqarmasi (B.Kusekeev) mazkur qarorning 3-4-bandlarida ko'rsatilgan vazifalarning ijrosi yuzasidan har oy yakuni bo'yicha Vazirlar Kengashiga axborot taqdim etib borsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosarlari B.Xabibullaev, M.Jumanov hamda M.Aleuovlarning zimmasiga yuklansin.

## **Qoraqalpog'iston Respublikasi**

**Vazirlar Kengashining Raisi**

**Q. Sariev**

- 
- 
- 

[Vazirlar Kengashi](#) [Statistik va tahliliy ma'lumotlar](#)  
[Vazirliklar va idoralar](#) [Shahar va tuman hokimliklari](#)  
[Hujjatlar](#) [Respublika mehmonlariga](#) [Elektron hukumat](#) [Interaktiv davlat xizmatlar](#)